



## **ISLOHOTLARNING ZAMONAVIY SHAROITLARIDA DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANISH TENDENTSIYALARI**

**N. J. Sheraliev**

*TDIU mustaqil tadqiqotchisi*

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol13\\_iss1/646](https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss1/646)

### **Annotatsiya**

Ushbu ilmiy maqolada davlat byudjeti daromadlarining shakllanish xususiyatlari nazariy jihatdan yoritib berilgan. Davlat byudjetining solikli va soliqsiz daromadlarining shakllanishi dinamik trendlar asosida tahlil qilingan. Makroiqtisodiy barqarorlikka soliqlarning ta'siri bo'yicha xulosalar tizimlashtirilgan. Shuningdek, tadqiqot davomida davlat byudjeti daromadlarining tarkibi, ularning o'sish sur'atlari va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri chuqur o'rganilgan. Soliqlarning iqtisodiy faollik, investitsion muhit va tadbirkorlik subyektlariga ta'siri batafsil tahlil qilinib, muhim natijalarga erishilgan. Olingan xulosalar asosida tegishli tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** Davlat byudjeti daromadlari, raqamli texnologiyalar, soliqlar, bilvosita soliqlar, bevosita soliqlar, resurs soliqlari va mol mulk solig'i, QQS.

### **Kirish (Introduction/Введение)**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjeti daromadlari mamlakatda yaratiladigan milliy daromadni qayta taqsimlash natijasida shakllantirilib, daromadlar iqtisodiy mohiyati bo'yicha makroiqtisodiy barqarorlikka turlicha ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy sharoitlarda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish va uning nisbatlarini takomillashtirish avvalo mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishning yangi kursi sharoitida davlat byudjeti milliy daromadni byudjet kanali orqali qayta taqsimlashning muhim moliyaviy manbai rolini bajarishi talab qilinadi. Shu bilan birga, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish jarayoni iqtisodiy islohotlarning samaradorligi, fiskal siyosatning o'zgaruvchanligi va soliq tizimining moslashuvchanligi bilan chambarchas bog'liq. Davlat moliyasining barqarorligini ta'minlash maqsadida solikli va soliqsiz daromadlarni optimal nisbatda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Byudjet daromadlarining samarali boshqarilishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature Review, Анализ литературы).**

Davlat byudjeti daromadlarining shakllanish tendensiyalarini o'rganish bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning har biri davlat moliyasining barqarorligi va iqtisodiy o'sish jarayonlaridagi rolini tahlil qiladi. Quyida mavzuga oid muhim tadqiqotlar ko'rib chiqiladi. Musgrave va Musgrave (1989). "Public Finance in Theory and Practice" nomli asarida davlat byudjeti daromadlarining shakllanish mexanizmlarini tahlil qilib, fiskal siyosat va byudjet barqarorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka e'tibor qaratadi. Ushbu asarda davlat daromadlari tarkibida soliqlarning o'rni va ta'siri batafsil tahlil qilingan[1].

Hamda ya'na bir buyuk olim Stiglitz J. (2000). "Economics of the Public Sector" asarida davlat byudjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri sifatida soliqlarni baholash bilan birga, davlat moliyaviy resurslarining iqtisodiyotga ta'siri muhokama qilingan. Soliq yukining taqsimlanishi va iqtisodiy samaradorlik masalalari tahlil etilgan[2].

Shuningdek, Tanzi V. (1991). "Public Finance in Developing Countries" nomli tadqiqotida rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat daromadlarining asosiy tendensiyalari va soliq tizimining o'ziga xos jihatlari yoritib beradi. Soliqlarning makroiqtisodiy ta'siri va fiskal barqarorlik masalalari muhokama qilingan[3]. Ya'na olimlar Atkinson A. B. & Stiglitz J. (1980). "Lectures on Public Economics" asarida davlat moliyasining nazariy asoslari, jumladan, davlat byudjeti daromadlarining shakllanish tamoyillari va ularning iqtisodiyotga ta'siri muhokama etilgan[4].

Suningdek O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risidagi qonunlar (turli yillarda). Ushbu hujjatlar mamlakat byudjet tizimining shakllanishi va uning tarkibiy qismlari bo'yicha rasmiy manba sifatida e'tirof etiladi. Qonunchilik bazasining soliq tizimiga ta'siri ko'rib chiqilgan[5].

Schumpeter J. (1918). "The Crisis of the Tax State" nomli asarida davlat moliyasining rivojlanish jarayonlari, soliq tizimining evolyutsiyasi va byudjet daromadlarining iqtisodiyotga ta'siri tahlil etilgan[6].

Karimov I. A. (1993). "O'zbekiston – bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li" nomli asarida mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, davlat byudjeti va soliq tizimining o'rni yoritilgan[7]. Hamda Usmonov U. (2010). "Davlat moliyasi: nazariya va amaliyot" kitobida O'zbekistonning davlat moliyasi tizimi, byudjet daromadlarining shakllanishi va fiskal siyosatning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan[8]. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2022). Ushbu kodeksda soliqlarning huquqiy asoslari, davlat byudjeti daromadlarining shakllanishi va fiskal siyosatga ta'siri yoritilgan. Soliq kodeksi bo'yicha soliqlar to'plash tartibi, bevosita va bilvosita soliqlarning ta'siri hamda soliq yukining iqtisodiy o'sishga ta'siri kabi masalalar ko'rib chiqilgan[9].

Yuqoridagi adabiyotlar davlat byudjeti daromadlarining shakllanishi, fiskal siyosatning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri va soliq tizimining o'zgarishlarini tushunishda muhim nazariy va empirik asoslarni beradi. Zamonaviy sharoitda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish jarayonlari iqtisodiy o'sish bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu adabiyotlar mazkur jarayonni tahlil qilish uchun muhim nazariy bazani ta'minlaydi.

#### **Tadqiqotni amalga jshirishda foydalanilgan usullar (Methods/ Методы).**

Ushbu ilmiy maqola doirasida olib borilgan tadqiqotlarni ilmiy bilishning ilmiy abstraktsuiyalash usulidan foydalanilgan. Empirik usullardan statistik kuzatish, taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan foydalanilgan.

#### **Tahlillar (Analysis/ Анализ).**

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy tizim amal qiluvchi mamlakatlarda davlat byudjeti daromadlarining shakllanish xususiyatlariga asoslangan holda bir qator modellarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, anglosakson mamlakatlarida davlat byudjeti daromadlarining shakllanishida bevosita soliqlar va resurs solqlari deb nomlanuvchi soliqlar yuqori fiskal faktor rolini o'ynovchi soliqlar hisoblanadi. Bilvosita soliqlar tarkibidagi aksiz solig'i orqali milliy daromadni qayta taqsimlash tizimi ham amal qilsa-da, ushbu soliq bir bosqichli aylanmadan olinadigan soliqlar sifatida e'tirof etiladi. Masalan, Kontinental g'arbiy Yevropa mamlakatlari byudjet tizimida bilvosita soliqlar tarkibidagi qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)

amaliyotidan keng foydalanilsa, Anglosaksaxon mamlakatlarida, xususan AQSH federal byudjeti daromadlarida korporativq foyda solig‘i, individual daromad solig‘i va shuningdek, aksiz solig‘ining federal byudjet daromadlaridagi ulushi yuqori hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston respublikasi soliq tizimi aralash modelni o‘zida mujassamlashtirib, bilvosita soliqlar tarkibida QQS va aksiz solig‘i yuqori fiskal faktor rolini o‘ynovchi soliqlarda qatoridan o‘rin olgan. Ushbu soliqlar nafaqat davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi asosiy fiskal faktor rolini o‘novchi soliqlar hisoblanadi, balki byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasida daromatlarni qayta taqsimlash (umumdavlat soliqlaridan me‘yoriy ajratmalar shaklidagi mahalliy byudjetlarga qoldiriladigan soliqlar) siyosatidagi asosiy moliyaviy instrumentlardan biri hisoblanadi.

Davlat byudjeti daromadlarining shakllanish samaradorligi va barqarorligi amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan xarajatlar ijrosining moddiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, davlat byudjeti xarajatlari davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning tom ma‘nodagi ifodasini o‘zida aks ettiradi.

Davlat byudjeti daromadlarining shakllanishini tarkibiy tahlillarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda daromadlarning iqtisodiy moyiyatiga ko‘ra to‘rt turkumda shakllanayotganligi va xususan, yuqori fiskal faktor rolini o‘ynovchi soliqlar sifatida bilvosita soliqlarning ulushi yuqori bo‘layotganligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin keyingi davrlarda bevosita soliqlarning dinamik o‘sishi soliq stavkalarni pasaytirish siyosati sharoitida soliq bazasining nominal mazmundagi qiymatini kengayib borayotganligidan dalolat beradi.

Umumiy kontekstda davlat byudjeti daromadlarini shakllanishining zamonaviy tendensiyalariga asoslangan tahlillarimizni quyidagi jadval ma‘lumotlari orqali batafsil ko‘rib chiqishimiz mumkin.

**1-jadval**

**Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti daromadlari to‘g‘risida ma‘lumot<sup>1</sup>, mlrd. so‘m**


Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2018-yilga nisbatan 2023-yildagi
Jami daromadlar	77571,1	112165,4	132938	164799,4	201863,7	231721,3	298,7
1. Bevosita soliqlar	15656,2	31676,8	45206,9	58930,4	64447,1	73103,6	466,9
1.1 Foyda solig‘i	3502,2	16360,6	28712,2	38363,3	37649,9	40778,9	1164,4
1.2 Jismoniy shaxslar danolinadigan daromad solig‘i	6422,7	12668,5	15140,8	18917,7	24284,5	29917,4	465,8
1.3 Aylanmadan olinadigan soliq	-	-	1353,9	1649,4	2512,7	2407,3	177,8
2. Bilvosita soliqlar	41280,4	46427,2	46428,4	56290,4	71390,2	83325,8	201,9
2.1 Qo‘shilgan qiymat solig‘i	27876,5	33809,8	31177,4	38439	52189,4	57885,3	207,6
2.2 Aksiz solig‘i	9702,2	10314,7	11697,3	13086,5	13455	15834,4	163,2
2.3 Bojxona boji	1826,4	2302,7	3553,7	4764,9	5745,7	9606,1	526,0

<sup>1</sup> Manba: [www.mf.uz.sayti](http://www.mf.uz.sayti) ma‘lumotlari.

Ko'rsatkichlar		2018	2019	2020	2021	2022	2023	2018-yilga nisbatan 2023-yildagi
3.	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	12663,4	19680,7	21257	23036,4	23912,8	28079,5	221,7
3.1	Mol-mulk solig'i	2606,1	2360,2	1974,3	2457,3	4015,4	5097,7	195,6
3.2	Yer solig'i	1504,2	2313,2	2386,7	4082,8	5305,9	6890,1	458,1
3.3	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	8424,7	14692,8	16417,1	15811,9	13887,4	15300,3	181,6
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	128,4	314,5	478,8	684,4	704,1	791,4	616,4
4	Boshqa daromadlar	7971	14380,7	20045,8	26542,2	42113,7	47212,5	592,3

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, davlat byudjeti jami daromadlari 2018-yilda 77571,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, tahlil qilinayotgan davr oxiriga qadar ushbu daromadlar nominal mazmunda 231721,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, 298,7 foizga o'sgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, iqtisodiy mohiyati bo'yicha daromadlarni turkumlashda bevosita soliqlar bo'yicha tushumlarning nominal qiymatining tahlil qilinayotgan davr boshi va oxiriga nisbatan o'sish dinamikasi 466,9 foizni tashkil qilgan. Ushbu yuqori o'sish sur'atida bevosita soliqlar tarkibidagi foyda solig'i bo'yicha tushumlar nominal qiymatining 1164,4 foizga o'sishi muhim rol o'ynagan. Bilvosita soliqlar tahlil qilinayotgan davrda mos holda 201,9 foizni tashkil qilib, uning tarkibidagi qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlar nominal qiymatining o'sishi yetakchilik qilgan.

Resurs to'lovlari va mol mulk solig'i bo'yicha tushumlarning nominal qiymati 2018-yilda 12663,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu daromadlar 28079,5 mlrd. so'mni va nisbiy dinamik o'sish sur'ati 221,7 foizni tashkil qilgan.




**2-rasm. Davlat byudjeti daromadlari elementlarini YAIMga nisbatan ulushi<sup>2</sup>, foizda**

2-rasmga murojaat qiladigan bo'lsak, davlat byudjeti daromadlari elementlarining YAIMga nisbatan ulushidagi o'zgarish tendensiyalarini kuzatish mumkin. Xususan, bevosita soliqlar 2018-yilda YAIM ga nisbatan 3,3 foini tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ulush 6,1 foizga qadar o'sib borgan. Shuningdek, boshqa daromadlarning ulushi ham 2018-yilda YAIMga nisbatan 1,7 foizdan to 4,0 foizga qadar o'sib borgan.

Bilvosita soliqlar (2018-yilda 8,7 foizdan 2023-yilda 7,0 foizga) va Resurs to'lovlari va mulk solig'i (2018-yilda 2,7 foizdan 2023-yilda 2,4 foizga) nisbiy pasayish tendensiyasini namoyon qilgan.

Demak, xulosa qilish mumkinki, davlat byudjeti daromadlarining o'sib borish tendensiyasida yuqori o'sish bevosita soliqlar va boshqa daromadlardagi yuqori o'sish tendensiyasi hisobiga kuzatilgan. Ushbu holat avvalo, iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning o'sishi hisobiga bevosita soliqlar bazasining kengayishi va boshqa daromadlar bo'yicha tushumlarning o'sishi hisobiga kuzatilgan.



**3-rasm. Daromadlar alohida elementlarini jami davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi<sup>3</sup>, foizda**

Bevosita soliqlar bu asosan daromaddan olinadigan soliqlar hisoblanib, soliq tizimini rivojlantirish konsepsisiga muvofiq ushbu soliqlarning fiskal funksiyasi rivojlanib borishini taqozo etadi. Natijada davlat daromadlarining tarkibiy ulushida ham o'zgarishlar kuzatilgan.

3-rasmdan ko'rish mumkinki, davlat byudjeti jami daromadlari tarkibida bevosita soliqlarning ulushi 2018-yilda 20,2 foizni, ushbu ko'rsatkich 2023-yilga kelib esa 31,5 foizni tashkil qildi. Bilvosita soliqlar esa 2018-yilda 53,2 foizni, 2023-yilga kelib esa 36 foizga pasaygan.

Ushbu pasayish asosan QQSning asosiy stavkasini 20 foizdan 12 foizga qadar pasaytirish bilan bog'liq islohotlar kuchli ta'sir qilgan. Tabiiyki, bilvosita soliqlar bu muomala jarayonidan olinadigan soliqlar hisoblanib, O'zbekistonda ushbu soliqlar mohiyati bo'yicha 3 odeli amal qiladi. Birinchi model, ko'p bosqichsi iste'moldan olinadigan soliqlar (QQS), bir bosqichli iste'moldan olinadigan soliqlar (Aksiz solig'i) va tashqi iqtisodiy faolitni tartibga solishning muhim fiskal instrumenti hisoblangan bojxona bojlarini keltirish mumkin. Bilvosita soliqlarning byudjet daromadlaridagi ulushining pasayib borishi, YAIMni ushbu soliqlar

vositasida qayta taqsimlash ko‘lamining pasayishi, ikkinchidan, soliqlar vositasida inflyatsion bosimni mo‘tadillashtirish ta‘minlangan.

### **Maqola bo‘yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).**

Davlat byudjeti daromadlari bo‘yicha tahlillarga asoslangan holda quyidagi xulosalarni tizimlashtirildi:

1. O‘zbekistonda soliq stavkalari nisbatan barqaror bo‘lishiga qaramay, ularning qayta ko‘rib chiqilishi fiskal elastiklikka ta‘sir qilishi mumkin. Masalan, soliq stavkalarining pasayishi qisqa muddatda byudjet daromadlarining o‘sinh elastikligini kamaytirishi mumkin.

2. Neft-gaz, paxta va boshqa eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlarning narxlari o‘zgarishi YaIM va byudjet daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikka sezilarli ta‘sir qilmaydi. Xalqaro savdo va investitsiyalar YaIM o‘shirishini ta‘minlaydi, biroq davlat byudjetiga tushadigan daromadlar vaqt kechikishi bilan o‘shirishi mumkin.

3. Elastiklik bilan bog‘liq fiskal tavakkalchiliklarni minimallashtirish uchun byudjet daromadlari bo‘yicha tushumlarni diversifikatsiyalash lozim. O‘zbekistonda davlat byudjeti daromadlari nisbatan diversifikatsiyalangan emas, bu esa fiskal elastiklikni cheklaydi va byudjet barqarorligini ma‘lum daromadlar va ushbu daromadlar shakllanuvchi tarmoqlarning barqarorligiga bog‘liqlikni kuchaytiradi. Asosan, bilvosita soliq va bojxona tushumlariga tayanish byudjetga YaIM o‘zgarishlarining bevosita ta‘sirini oshiradi.

4. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq to‘lashdan qochishni oldini olishning eng muhim va samarali shartlaridan biri biznesni raqamlashtirish hisoblanadi. Soliq va bojxona tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali tushumlarning aniqligi va oshirishini ta‘minlash bilan bir qatorda byudjet daromadlari bo‘yicha prognozlashtirilgan tushumlarning yuqori aniqlikda tushumlarini ta‘minlashga shart sharoit yaratadi. Raqamlashtirish bir so‘z bilan aytganda, xususiy sektorning YaIMga ta‘sirini oshirish orqali davlat byudjeti tushumlarini barqaror ta‘minlashga shart sharoit yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar (References)**

1. Musgrave R. A., Musgrave P. B. (1989). Public Finance in Theory and Practice. McGraw-Hill. <https://desmarais-tremblay.com/Resources/Musgrave>
2. Stiglitz J. E. (2000). Economics of the Public Sector. W. W. Norton & Company. [https://amseif.ir/wp-content/uploads/2021/11/Economics\\_of\\_the\\_Public\\_Sector\\_Joseph\\_E.pdf](https://amseif.ir/wp-content/uploads/2021/11/Economics_of_the_Public_Sector_Joseph_E.pdf)
3. Tanzi V. (1991). Public Finance in Developing Countries. Edward Elgar Publishing.
4. Atkinson A. B., Stiglitz J. E. (1980). Lectures on Public Economics. Princeton University Press.
5. Kungratov, I. (2024). DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN UZBEKISTAN: CHALLENGES, INNOVATIONS, AND FUTURE TRENDS. DTAI – 2024, 1(DTAI). Retrieved from <https://dtai.tsue.uz/index.php/DTAI2024/article/view/314>
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonunlar (turli yillarda).
7. Schumpeter J. (1918). The Crisis of the Tax State. [https://link.springer.com/chapter/10.1007/0-306-48082-4\\_17](https://link.springer.com/chapter/10.1007/0-306-48082-4_17)
8. Karimov I. A. (1993). O‘zbekiston – bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. Tashkent: O‘zbekiston.
9. Шохрух Бобокулов, & Ильмурод Кунгратов. (2025). Бизнес-анализ и оптимизация механизма коммерциализации научно-инновационных разработок организации. *Muhandislik Va Iqtisodiyot*, 3(1), 7–12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14837564>
10. Usmonov U. (2010). Davlat moliyasi: nazariya va amaliyot. Tashkent: Iqtisodiyot.
11. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2022). [https://lex.uz/docs/-4674902?utm\\_source=chatgpt.com](https://lex.uz/docs/-4674902?utm_source=chatgpt.com)